

O'qituvchi: B. Yuldoshev

Fan: Jahon tarixi

Sinf: 9-sinf

Mavzu: Shimoliy Afrika mamlakatlari

TEXNOLOGIK XARITA

MAVZU	Shimoliy Afrika mamlakatlari.
Maqsad, vazifalar	Maqsad: XIX asrning oxiri — XX asr boshlarida “Shimoliy Afrika davlatlari” mavzusini singdirish Vazifalar: - o'quvchilarda mavzuga nisbatan qiziqish uyg'otish, ularda mavzu asosida bilim va ko'nikmalarni shakllantirish va kengaytirish. - mavzuga oid tarqatilgan materiallarni o'quvchilar tomonidan yakka va guruh holatida o'zlashtirib olishlari hamda suhbat munozara orqali tarqatma materiallardagi matnlar qay darajada o'zlashtirilganligini nazorat qilish, ularni bilimini baholash.
O'quv jarayonining mazmuni	XIX asrning oxiri — XX asr boshlarida Afrika Mamlakatlari mavzusi bo'yicha bilimga ega bo'lish.
O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi	Uslub: Og'zaki bayon qilish, “FSMU”, “Muammo” texnologiyasi, “Tushunchalar tahlili”, “Charxpalak” texnologiyalari Shakl: suhbat-munozara, amaliy mashg'ulot, kichik guruhlar va jamoada ishlash. Vosita: Tarqatma materiallar, matnlar. Usul: Tayyor yozma materiallar va chizmalar asosida. Nazorat: Og'zaki nazorat, savol-javoblar, kuzatish, o'z-o'zini nazorat qilish. Baholash: Rag'batlantirish, 5 balli tizim asosida baholash.
Kutiladigan natijalar	O'qituvchi: mavzuni qisqa vaqt ichida o'quvchilar tomonidan o'zlashtirishiga erishadi, o'quvchilar faolligini oshiradi. O'quvchilarda darsga nisbatan qiziqish uyg'otadi. Bir mashg'ulot jarayonida o'quvchilarni baholaydi. O'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishadi. O'quvchilar tomonidan yozma axborotni mustaqil o'rganish, uni xotirada saqlash, boshqalarga yetkazish, savol berish va savollarga javob berishga o'rgatadi. O'quvchi: Yangi bilimlarni egallaydi. Yakka holda va guruh bo'lib ishlashni o'rganadi. Nutqi rivojlanadi va eslab qolish qobiliyati kuchayadi, o'z-o'zini nazorat qilishni o'rganadi, qisqa vaqt ichida ko'p ma'lumotga ega bo'ladi va baholay oladi.
Kelgusidagi rejalar (tahlil, o'zgarishlar)	O'qituvchi: Yangi pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirish va darsda tatbiq etish, takomillashtirish. O'z ustida ishlash, mavzuni hayotiy voqealar bilan bog'lash. Pedagogik mahoratni oshirish. O'quvchi: matn bilan mustaqil ishlashni o'rganadi. O'z fikrini ravon bayon qila oladi. Shu mavzu asosida qo'shimcha materiallar topadi, ularni o'rganadi. O'z fikri va guruh fikrini tahlil qilib bir yechimga kelish malakasini hosil qiladi.

DARSNING BLOK CHIZMASI

№	Dars bosqichlari	Vaqt
----------	-------------------------	-------------

1.1	Tashkiliy qism	3 minut
2.2	O‘tilgan mavzuni takrorlash	7minut
3.	Yangi mavzuni guruhlar bilan ishlash	20 minut
4.	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 minut
5.	Baholash	3 minut
6.	Uyga vazifa	2 minut

Darsning borishi

I. Tashkiliy qism:

O‘quvchilar bilan salomlashish, davomatni aniqlash, uyga berilgan vazifalarni tekshirish, O‘zbekistonda va dunyoda sodir bo‘layotgan yangiliklar bilan (topshiriq berilgan o‘quvchilar orqali) tanishtirish.

Darsning jihozlanishi va darsga hozirlik ko‘rish

1. Darslik.
2. Dunyo va O‘zbekiston xaritasi.
3. Tarqatma materiallar: (topshiriqlar yozilgan kartochkalar) (ilova qilinadi)
4. Sinf xonasini guruhlariga ishlashga tayyorlash (sinf o‘quvchilarining soniga qarab 4, 5 guruhga bo‘lib, stollarni qo‘yib chiqish)
5. Guruhlarni baholash uchun har bir o‘quvchiga quyidagicha jadval tayyorlanadi.

	Savollar	To‘g‘ri va to‘liq javob	Qisman to‘g‘ri javob	Umuman javob yo‘q
.	 Jamoliddin al-Afg‘oniy „Xizb ul-Vatan“ („Vatan partiyasi“) partiyasini tuzdi.	1871	1873	1865
	 Istanbulda Suvaysh kanalidan foydalanish bo‘yicha Buyuk Britaniya, Germaniya, Ispaniya, Italiya, Rossiya, Turkiya, Fransiya davlatlari konvensiya imzolashdi..	1888	1880	1849

Izoh: to‘g‘ri va noto‘g‘ri javoblar soni belqilanadi

Dars turi: Aralash

Dars jarayonida qo‘llaniluvchi metodlar: Kichik ma‘ruza, guruhlarda ishlash metodlari.

Sinfni guruhlar bilan ishlashga tayyorlash

O‘quvchilarni guruhlarda ishlashga tayyorlash uchun dars boshlanishidan avval ularga sud tizimi va uning o‘ziga xos xususiyatlari to‘g‘risida yozilgan kartochkalar tayyorlanadi.

II. O‘rganilgan mavzuni takrorlash

Guruhlariga quyidagi topshiriqlar beriladi:

- 1) O‘tgan mavzu bo‘yicha berilgan savollarga javobni birgalikda maslahatlashib toping
- 2) So‘ng fikr almashing
- 3) Taqdimotga tayyorlaning

TOPSHIRIQLAR:

1-guruhga Shimoliy Afrikada arab davlatlari qay tariqa Turkiya mustamlakasiga aylanganligini eslang?

2-guruhga Shimoliy Afrikada qaysi buyuk davlatlarning manfaatlari to‘qnashgan?

3-guruhga Misr xalqining milliy ozodlik kurashi haqida nimalarni bilib oldingiz?

4-guruhga Mahdiylar qo‘zg‘oloni haqida so‘zlab bering?

O'quvchilar o'zlashtirilgan ma'lumotlarni daftarlariga yozib bo'lgandan so'ng guruhlar daftarlarini almashtiradilar va o'qib berilgan javoblarning to'g'ri noto'g'riligini joyida belgilaydilar. O'qituvchi guruhlar javoblarini tinglab, umumlashtiradi va o'tilgan mavzuga yakun yasaydi.

III. Yangi dars mazmuni :

- ✓ O'qituvchi yangi mavzuni slaydlar asosida qisqacha ma'ruza orqali tushuntiradi (slaydlar va ma'ruza ilova qilinadi).
- ✓ Ma'ruza quyidagi tartibda tushuntiriladi:
- ✓ Misrliklarning xudolari
- ✓ Kohinlar va ibodatxonalar

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash uchun

1-USUL: "FSMU" TEXNOLOGIYASI

Texnologiyaning tavsifi. Ushbu texnologiya munozarali masalalarni hal etishda, bahs-munozaralar o'tkazishda yoki o'quv-seminari yakunida (yoki o'quvchi)larning o'quv mashg'ulotlari hamda o'tilgan mavzu va bo'limlardagi ba'zi mavzular, muammolarga nisbatan fikrlarini bilish maqsadida yoki o'quv rejasi asosida biror-bir bo'lim o'rganilgach qo'llanilishi mumkin. Chunki bu texnologiya tinglovchi (yoki o'quvchi)larni o'z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o'z fikrini boshqalarga o'tkazishga, ochiq holda bahslashishga, shu bilan qatorda o'quvchi - tinglovchilar tomonidan o'quv jarayonida egallangan bilimlarini tahlil etishga va egallanganlik darajasini aniqlashga, baholashga hamda tinglovchilarni bahslashish madaniyatiga o'rgatadi.

Texnologiyaning maqsadi. Ushbu texnologiya tinglovchi (yoki o'quvchi)larni tarqatilgan oddiy qog'ozga o'z fikrlarini aniq va qisqa holatda ifoda etib, tasdiqlovchi dalillar yoki inkor etuvchi fikrlarni bayon etishga yordam beradi.

Mashg'ulotni o'tkazish tartibi:

- o'qituvchi har bir tinglovchi (yoki o'quvchi)ga FSMU texnologiyasining to'rt bosqichi yozilgan qog'oz varaqlarini tarqatadi va yakka tartibda ularni to'ldirishni iltimos qiladi. Bu yerda:

- **F**- fikringizni bayon eting;
- **S** –fikringiz bayoniga sabab ko'rsating;
- **M** – ko'rsatgan sababingizni asoslovchi misol keltiring;
- **U** – fikringizni umumlashtiring.
- o'qituvchi tinglovchi (yoki o'quvchi)lar bilan bahs mavzusi (yoki muammo)ni belgilab oladi;
- yakka tartibdagi ish tugagach, tinglovchi (yoki o'quvchi)lar kichik guruhlariga ajratiladi va o'qituvchi kichik guruhlariga FSMU texnologiyasining to'rt bosqichi yozilgan katta formatdagi qog'ozlarni tarqatadi;
- kichik guruhlariga har birlari yozgan qog'ozlardagi fikr va dalillarni katta formatda umumlashtirgan holda to'rt bosqich bo'yicha yozishlarini taklif etiladi;
- o'qituvchi kichik guruhlarining yozgan fikrlarini jamoa o'rtasida himoya qilishlarini so'raydi;
- mashg'ulot o'qituvchi tomonidan muammo bo'yicha bildirilgan fikrlarni umumlashtirish bilan yakunlanadi.

Tarqatma materialning taxminiy nusxasi

VAZIFA. Mahdiylar qo'zg'oloni bo'yicha fikrlaringizni bayon eting:

- **F**- fikringizni bayon eting;
- **S** –fikringiz bayoniga sabab ko'rsating;
- **M** – ko'rsatgan sababingizni asoslovchi misol keltiring;
- **U** – fikringizni umumlashtiring.

2-USUL: «MUAMMO» TEXNOLOGIYASI

Texnologiyaning maqsadi: tinglovchi (yoki o'quvchi)larga o'quv predmetining mavzusidan kelib chiqqan turli muammoli masala yoki vaziyatlarning yechimini to'g'ri

topishlariga o'rgatish, ularda muammoning mohiyatini aniqlash bo'yicha malakalarni shakllantirish, muammoni yechishning ba'zi usullari bilan tanishtirish va muammoni yechishda mos uslublarni to'g'ri tanlashga o'rgatish, muammoni kelib chiqish sabablarini va muammoni yechishdagi hatti-harakatlarni to'g'ri aniqlashga o'rgatish.

Mashg'ulotni o'tkazish tartibi:

O'qituvchi tinglovchi (yoki o'quvchi)larni guruhlariga ajratib, ularni mos o'rinlarga joylashtirgandan so'ng, mashg'ulotni o'tkazish tartib-qoidolari va talablarini tushuntiradi, YA'ni u mashg'ulotni bosqichli bo'lishini va har bir bosqich tinglovchi (yoki o'quvchi)lardan maksimum diqqat-e'tibor talab qilishini, mashg'ulot davomida ular yakka, guruh va jamoa bo'lib ishlashlarini aytadi. Bunday kayfiyat tinglovchi (yoki o'quvchi)larga berilgan topshiriqlarni bajarishga tayyor bo'lishlariga yordam beradi va bajarishga qiziqish uyg'otadi. Mashg'ulotni o'tkazish tartib-qoidolari va talablari tushuntirilgach, mashg'ulot boshlanadi:

- tinglovchi (yoki o'quvchi)lar tomonidan mashg'ulot uchun tayyorlangan kinolavhani diqqat bilan tomosha qilib, unda yoritilgan muammoni aniqlashga harakat qilish, xotirada saqlab qolish yoki daftarlariga belgilab qo'yish (agar kinofilm ko'rsatishning imkoniyati bo'lmasa u holda o'qituvchi o'quv predmetining mavzusi bo'yicha plakat, rasm, afisha yoki biror muammo bayon qilingan matn, kitobdagi o'quv materialidan foydalanishi mumkin);
- har bir guruh a'zolari tomonidan Ushbu lavhadan (rasmdan, matndan, hayotiy voqeadan) birgalikda aniqlangan muammolarni vatman yoki A-3 formatdagi qog'ozga flomaster bilan yozib chiqadi;
- berilgan aniq vaqt tugagach, tayyorlangan ishni guruh vakili tomonidan o'qib eshittiriladi;
- o'qituvchi guruhlar tomonidan tanlangan va muammolar yozilgan qog'ozlarni almashtirgan holda guruhlariga tarqatiladi;
- tarqatilgan qog'ozlarda guruhlar tomonidan yozilgan muammolardan har bir guruh a'zosi o'zini qiziqtirgan muammodan birini tanlab oladi;
- o'qituvchi tomonidan tarqatilgan quyidagi chizmaga har bir guruh a'zosi tanlab olgan muammosini yozib, mustaqil ravishda tahlil etadi.

Masalan:

Muammoning turi	Muammoni kelib chiqish sabablari	Muammoni yechish yo'llari va Sizning harakatlaringiz
1885-yilda Sudanda mustaqil mahdiylar davlati tuzilgan yili O'zbekiston hududida bo'lib o'tgan voqiyalikni toping? Ularning umumiy va o'ziga xos jihatlarini aniqlang?	❖ 1. ❖ 2. ❖ 3. ❖ 4. ❖ 5. ❖ 6.....	❖ 1. ❖ 2. ❖ 3. ❖ 4. ❖ 5. ❖ 6.....

- yakka tartibdagi faoliyat tugagandan so'ng har bir tinglovchi (yoki o'quvchi) bajargan tahliliy ishini barchaga o'qib eshittiradi;
- muammolar va ularning yechimi bo'yicha jamoaviy fikr almashiladi;
- himoyadan so'ng o'qituvchi mashg'ulotga yakun yasaydi. Kichik guruhlariga qiziqarli ishlari uchun minnatdorchilik bildiradi.

Bunday texnologiya bilan utkazilgan mashg'ulot natijasida tinglovchi (yoki o'quvchi)lar qaysidir muammoni yechishdan avval uning sababini aniqlanishi kerakligini, keyin esa ularga zarur bo'lgan uslub va usullarni tanlashi hamda o'z harakatlarini aniq belgilab olishlari kerakligini bilib oladilar.

3-USUL: «CHARXPALAK» TEXNOLOGIYASI

Texnologiyaning tavsifi. Ushbu texnologiya tinglovchi (yoki o'quvchi)larni o'tilgan mavzularni yodga olishga, mantiqan fikrlab, berilgan savollarga mustaqil ravishda to'g'ri javob

berishga va o'z-o'zini baholashga o'rgatishga hamda qisqa vaqt ichida o'qituvchi tomonidan barcha tinglovchi (yoki o'quvchi)larning egallagan bilimlarini baholashga qaratilgan.

Texnologiyaning maqsadi: tinglovchi (yoki o'quvchi)larni dars jarayonida mantiqiy fikrlash, o'z fikrlarini mustaqil ravishda erkin bayon eta olish, o'zlarini baholash, yakki va guruhlarda ishlashga, boshqalar fikriga hurmat bilan qarashga, ko'p fikrlardan keraklisini tanlab olishga o'rgatish.

Texnologiyaning qo'llanilishi: texnologiya o'quv mashg'ulotlarining barcha turlarida dars boshlanishi yoki dars oxirida yoki o'quv predmetining biron bir bo'limi tugallanganda, o'tilgan mavzularni tinglovchi (yoki o'quvchi)lar tomonidan o'zlashtirganlik darajasini baholash, takrorlash, mustahkamlash yoki oraliq va yakuniy nazorat o'tkazish uchun mo'ljallangan. Ushbu texnologiyani mashg'ulot jarayonida yoki uning bir qismida yakka, kichik guruh va jamoa shaklida tashkil etish mumkin.

Mashg'ulotda foydalanilgan vositalar: tarqatma materiallar, rangli qalam (yoki flamaster)lar.

Izoh: reja bo'yicha belgilangan mavzu asosida hamda o'qituvchining qo'ygan maqsadi (tekshirish, mustahkam, baholash)ga mos tayyorlangan tarqatma materiallar (agar yakka tartibda o'tkazish mo'ljallangan bo'lsa, guruh o'quvchilari soniga, agar kichik guruhlarda o'tkazish belgilangan bo'lsa, u holda guruhlar soniga qarab tarqatma materiallar tayyorlandi).

Mashg'ulotni o'tkazish tartibi:

- tinglovchi (yoki o'quvchi)larni (sharoitga qarab) guruhlariga ajratish;
- tinglovchi (yoki o'quvchi) mashg'ulotni o'tkazishga qo'yilgan talablar va qoidalar bilan tanishtirish;
- tarqatma materiallarni guruh a'zolariga tarqatish.
- guruh a'zolari tomonidan yakka holda mustaqil ravishda tarqatma materiallardagi vazifalar bajariladi;
- har bir guruh a'zosi o'zi ishlagan tarqatma materialining o'ng burchagiga guruh raqamini yozadi, chap burchagiga esa o'zining biron-bir belgisini chizib qo'yadi;
- vazifa bajarilgan tarqatma materiallar boshqa guruhlariga «charxpalak aylanmasi» yo'nalishida almashtiriladi;
- Yangi guruh a'zolari tomonidan berilgan materiallar o'rganiladi va o'zgartirishlar kiritiladi;
- jamoalar tomonidan o'rganilgan va o'zgartirishlar kiritilgan materiallar yana yuqorida eslatilgan yo'nalish bo'yicha guruhlararo almashtiriladi (ushbu jarayon guruhlar soniga qarab davom ettiriladi);
- materiallarni oxirgi almashishdan so'ng har bir guruh va har bir guruh a'zosi o'zlari ilk bor to'ldirgan materiallarini (guruh raqami va o'zlari qo'ygan belgilari asosida) tanlab oladilar;
- har bir guruh a'zosining o'zlari belgilagan javoblariga boshqa guruh a'zolarining tuzatishlarini taqqoslaydilar va tahlil qiladilar;
- o'qituvchining tarqatma materialda berilgan vazifalarini o'qiydi va jamoa bilan birgalikda to'g'ri javoblarni belgilaydi;
- har bir tinglovchi (yoki o'quvchi) to'g'ri javob bilan belgilangan javoblar farqlarini aniqlaydilar, kerakli ballni to'playdilar va o'z-o'zini baholaydilar.

Izoh: tarqatma materialda tinglovchi (yoki o'quvchi)lar belgilagan to'g'ri javoblar bilan o'qituvchi hamkorligida aniqlangan to'g'ri javoblarning farqi 55 foizdan yuqori bo'lsa, tinglovchi (yoki o'quvchi) ushbu o'quv materialini o'zlashtirgan, undan kam bo'lsa o'zlashtira olmaganligini bildiradi. Masalan, vazifalar soni 30 ta bo'lib, javoblarning 17-20 tasi to'g'ri belgilangan bo'lsa, tinglovchi (yoki o'quvchi) ushbu vazifani bajargan va o'quv materialini o'zlashtira olgan, agar undan kam bo'lsa o'zlashtira olmagan hisoblanadi. Shu bilan birga, javoblarning 21-24 tasi to'g'ri belgilangan bo'lsa tinglovchi (yoki o'quvchi) materiallarni o'zlashtirgan darajasi «yaxshi» bahoga, 25-30 tasi to'g'ri bo'lsa, «a'lo» bahoga o'zlashtirgan deb hisoblanadi.

- tinglovchi (yoki o'quvchi)lar o'z baholari yoki ballarini belgilab olishgach, o'qituvchi vazifa bajarilgan qog'ozlarni yig'ib oladi va baho (ballar)ni guruh jurnaliga ko'chirib qo'yadi.

«Charxpalak» texnologiyasidan foydalangan holda mashg'ulot o'tkazish uchun tinglovchi (yoki o'quvchi)larga quyidagicha vazifa berish mumkin. Vazifa uchun zarur bo'lgan tarqatma materialni ilovada keltiramiz.

V. Dars yakunlanadi va baholanadi

O'quvchilar tomonidan bajarilgan topshiriqlarni o'qituvchi baholash uchun o'quvchilarning uyga berilgan vazifalarni to'g'ri bajarganligi, darsdagi faol ishtiroki va dars jarayonida jadvalning to'g'ri to'ldirilganligi va kartochkalar bilan to'g'ri ishlaganligi e'tiborga olinib baholanadi.

VI. Uyga vazifa

Yangi mavzuni darslik bo'yicha o'qib, mavzu oxiridagi savollarga javob tayyorlash, Shimoliy Afrika davlatlari to'g'risida to'liq ma'lumotlarga ega bo'ladilar va daftarga namunalarni yozib kelish.

MA'RUZA

Afrikaning shimoliy qismida, Sahroyi Kabirning janubiy chegarasiga qadar aholining ko'pchiligini arablar tashkil etardi. Bu hududlarda barbarlar, habashlar va boshqa xalqlar ham yashardi. XIX asrning 70-yillariga qadar Afrikaning shimolida va shimoliy-sharqida, ya'ni arablar yashovchi hududlarda mutlaq podsholik tuzumlari hukm surardi. Ulardan rasman Usmonli turk imperiyasi tarkibiga kirgan Misr, Tripolitaniya, Kirenaika (hozirgi Liviya) va Tunis esa amalda Turkiya sultoniga itoat etmasdilar. XIX asr oxirida Misr va Sudan — Buyuk Britaniyaning, Tunis, Jazoir va Marokash — Fransiyaning, Marokashning bir qismi-Ispaniyaning, Liviya esa Italiyaning mustamlakalariga aylandi.

XIX asr oxiri— XX asr boshlarida Sharqiy Sudan Misr qaramog'ida edi. 1881-yilda sudanliklarning yetakchisi Muhammad Alimahdiy xalqni Misr-Turk zulmiga hamda yevropaliklarga qarshi muqaddas urushga chaqirdi. Muhammad Alimahdiy o'zini Mahdiy deb e'lon qildi. Gubernator Mahdiyni qamash uchun yuborgan 200 kishilik harbiy guruh yo'q qilib tashlandi. 1882-yilda Xartumga Misrlik Abdul Qodir general-gubernator etib tayinlandi. U mahdiylar harakatini bostirishga urindi. Lekin, mag'lubiyatga uchradi. Bu orada inglizlar Misrni bosib oldilar. 1883 yili general Xiks boshliq ingliz qo'shini Sudan ansorlari tomonidan qirib tashlandi. 1884 yili inglizlar Sudanga general Gordon boshchiligida harbiy qism yuborishdi. Biroq, bu qo'shin ham ansorlar tomonidan yo'q qilindi va Sudan ozod qilindi.

1885-yilda Sudanda mustaqil mahdiylar davlati tuzildi. Qo'zg'olon rahbari mahdiy Muhammad Alimahdiy vafot etib, uning birinchi xalifi Abdulloh hokimiyatni o'z qo'liga oldi. Omdurman shahri poytaxt etib belgilandi. Mamlakat viloyatlarga bo'lindi. 200 ming kishilik qo'shin davlatning asosiy tayanchi bo'lib qoldi. Biroq, mamlakatda ichki nizo kuchaydi. Aynan shu omil mahdiylarni kuchsizlantirdi. Bundan foydalangan Buyuk Britaniya Efiopiyani Sudanga qarshi gijgijladi. Natijada, 1885-yilda ikki o'rtada urush harakatlari boshlandi. Bu orada Italiya Efiopiyaga hujum qildi. 1887-yilda Adua yonida Italiya qo'shini tor-mor qilindi. Efiopiya hukmdori Yo'xonni Abdullohga murojaat qilib, umumiy dushmanga qarshi birgalikda kurashga chaqirdi. Lekin, Abdulloh buning evaziga Yo'xonni Islomga o'tishini talab qildi. Oqibatda, zarur bitim tuzilmay qoldi. Efiopiya - Sudan urushida ko'p qon to'kildi. 1889- yilda Efiopiya imperatori Menelik sudanliklar foydasini ko'zlovchi bitimni imzolashga majbur bo'ldi. 1889-yil avgustda esa Buyuk Britaniya — Misr birlashgan qo'shinlari Sudan mahdiylari qo'shini ustidan g'alaba qozondi va Sudanning asosiy qismini bosib olishga erishdi.